

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Tuychiev	
Chet tilini o'qitishda talabalarning tanqidiy fikrlash va so'zlashish malakalarini rivojlantirish bo'yicha debatlar tashkil etish	462
M.Zohidova	
Madaniyatlararo muloqotni ingliz tili darslarida video vazifalar orqali rivojlantirish.....	466
B.Yunusova	
Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi.....	470
Z.Alimova	
Navoiyning “Saddi iskandariy” asaridagi forscha-tojikcha so'zlarning semantik jihatdan guruhlanishi	475
F.Yuldasheva	
Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalik tadqiqi	480
J.Djamolov	
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nuqtai nazaridan tilni rivojlantirish masalalari.....	484
F.Xalimova	
Badiiy konseptlar tipologiyasi	490
D.M.Xoshimova	
Tarjimada xarakter psixologiyasini aks ettiruvchi qiyosiy vositalar tarjimalari	494
M.A.Hojiyeva	
Mustaqil ta'lim vositasida bo'lajak filolog mutaxassislarining terminologik kompetentligini rivojlantirish	497
Sh.S.Irgasheva	
Ingliz tilida internet diskursidagi neologizmlar faoliyatining semantik xususiyatlari	502
G.M.Mamadjanova	
Konstantalarni asosiy lingvokulturologik birliklar sifatida o'rganish	507
V.A.Giyosova	
Murojaat birliklarining ijtimoiy-lisoniy tahlili	512
Z.S.Paziljanova	
Madaniyatlararo muloqotda muloqot modellari	517
A.A.Haydarov, Z.T.Yadgarova	
Ritm, qofiya, intonatsiya	520
I.T.Hojaliyev, M.Sh.Xolmatov	
Xotira matnlaridagi polisemantik so'zlarning semantik-strukturasi	524
	FANIMIZ FIDOYILARI
SHARIFAXON ISKANDAROVA	529

**TARJIMADA XARAKTER PSIXOLOGIYASINI AKS ETTIRUVCHI QIYOSIY VOSITALAR
TARJIMALARI**

**TRANSLATIONS OF COMPARATIVE MEANS REFLECTING CHARACTER
PSYCHOLOGY IN TRANSLATION**

**ПЕРЕВОДЫ СОПОСТАВИТЕЛЬНЫМИ СРЕДСТВАМИ, ОТРАЖАЮЩИМИ
ПСИХОЛОГИЯ ХАРАКТЕРА В ПЕРЕВОДЕ**

Xoshimova Dildora Madaminovna¹, Turaxonova Xositxon Maxammadoliomovna²

¹Xoshimova Dildora Madaminovna

– filologiya fanlari doktori, professor, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, “Chet tillar” kafedrasini mudiri

²Turaxonova Xositxon Maxammadoliomovna

– Namangan muhandislik texnologiyalari instituti, Chet tillar kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola «Boburnoma»da qiyosiy tasvirlangan temuriy shahzodalar, amir, bek va lashkarboshilar, askarlar turli qiyofalarda namoyon bo'lishi, bunday qiyosiy tasvirlarda atrofida shaxsiyati, xarakter xususiyatlari, psixologik jihatlari Boburga xos sinchkovlik bilan ob'ektiv bayon etishni maqsad qilganini tarjimalarda qay tarzda qayta tiklanganligi ko'rsatib berilgan.

Аннотация

В данной статье показано, как тимуридские князья, эмиры, полководцы и военачальники, воины, изображенные в «Бабурнаме», предстают в разных образах, а личность, черты характера, психологические аспекты окружающих в таких сравнительных образах воспроизводятся в переводах с достоверностью Бабур

Abstract

This article shows how Timurid princes, emirs, generals and army chiefs, soldiers depicted in the “Baburname” appear in different images, and the personality, character traits, and psychological aspects of those around them in such comparative images are reproduced in the translations with the meticulousness of Babur.

Kalit so'zlar: psixologik jihatlar, ob'ektiv bayon etish, badiiy tasvir vositalar, tarixiy-psixologik tafsilotlar

Ключевые слова: психологические аспекты, объективная характеристика, средства художественного образа, историко-психологические детали

Key words: psychological aspects, objective description, artistic image tools, historical-psychological detail

KIRISH

O'z muhitidagi shahzodalar, beklar, hatto oddiy askarlarga bergan ta'rif-tavsifida Bobur shaxsiyati, siyosiy qarashlari, harbiy jasarati, boy tajribasi aks etganini kuzatamiz. «Boburnoma»da 1505–1506 yillar voqealari bayoni boshqa tarixiy-psixologik tafsilotlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu davr Boburning Afg'onistondagi hayoti bilan bog'liq bo'lib, bunda Amir Temur saltanatini Hindiston hududigacha tiklashdek ulug' maqsad namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, Q.Ergashev ta'kidlaganidek, «Boburnoma» bu jihati bilan: «faqat o'zbek nasrida emas, jahon adabiyotida ham nodir hodisa bo'lib, o'ziga xosligi, takrorlanmas badiiyati, tili va uslubi bilan ajralib turadi» [8.28].

«Boburnoma»da qiyosiy tasvirlangan temuriy shahzodalar, amir, bek va lashkarboshilar, askarlar turli qiyofalarda namoyon bo'ladi. Bunday qiyosiy tasvirlarda atrofida shaxsiyati, xarakter xususiyatlari, psixologik jihatlari Boburga xos sinchkovlik bilan obyektiv bayon etishni maqsad qilganini ko'ramiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

«Boburnoma»ning ilk sahifalarida muallif otasi Umarshayx mirzo haqida so'z yuritadi. Shu jarayonda Bobur otasi xizmatida bo'lgan shahzoda, beklar haqida qisqa, ammo boy ma'lumot beradi. Masalan, u: «Yana bir Shayx Mazidbek edi, manga avval bek atka ani qilib edilar. Zabti va tuzuki xeyli yaxshi edi. (Abulqosim –D.X.) Bobur mirzog'a xizmat qilg'ondur. Umarshayx mirzo qoshida andin ulug'roq bek yo'q edi. Fosiq kishi erdi» [2. 41], deb yozar ekan, bu bekning saltanatni boshqarish ishlarida mohirligi, o'z sultonlariga sadoqat bilan xizmat qilishini ta'kidlash barobarida, shaxsiyatiga xos qusurlarni ham bayon etadi.

Bu jihatlar Leyden-Erskin tarjimasida: «*There was another named Sheikh Mazid Beg, who was first appointed my governor. His arrangements and discipline were excellent. He had been in the*

TILSHUNOSLIK

service of Babur Mirza. No man stood higher in the esteem of Omer-Sheikh Mirza than himself. He was, however, of grossly libidinous habits...» [1.22-23] tarzida keladi. Ushbu «Umarshayx mirzo qoshida andin ulug'roq bek yo'q edi» jumlasini «No man stood higher in the esteem of Omer-Sheikh Mirza than himself» deb aynan tarjima qilinadi. Xuddi shu jumla tarkibiga kirgan «Umarshayx mirzo qoshida» so'zlari matnga qiyosiy tasvir ruhini bergan. Tarjimon buni yaxshi his qilgan. Ammo bunday maqtov Boburning Mazidbekka xos fosiqlik qusurini qayd etishiga xalal bera olmagan. Holbuki «fosiq» so'zi lug'atlarda «yomon ishlar qiluvchi, yomon yo'lga yuruvchi, buzuq, fisq ishlar bilan shug'ullanuvchi» [5], tarzida izohlanadi. Bir qarashda bu qusurning zikr etilishi Mazidbekka xos barcha ijobiy jihatlarni yuvib ketadigandek tasavvur beradi. Lekin Boburning maqsadi bu o'rinda Mazidbek shaxsining otasi dargohidagi nufuzi, saltanat xizmatchisi sifatidagi foydasini qayd etish bo'lganini to'g'ri tushunsak, masala oydinlashadi. Aftidan Leyden-Erskin asar matni ostidagi mana shu ruhni to'g'ri anglagan. Holbuki, «Tarjimaga kirishmasdan burun tarjima qilinadigan asarni har tomonlama o'rganish, uning lug'ati va badiiy xususiyatlari ustida oldindan katta ish olib borish, asarning ichki tuzilishi, obrazlari, qahramonlar harakat qilayotgan ijtimoiy-tarixiy muhit, badiiy tasvir vositalari, uslubi haqida o'ziga xos material, ma'lumotnomalar yaratish-tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishi»ga qo'l keladi [6.8].

A.Beveridj tarjimasida: *Shaikh Mazid Beg was another, my first guardian, excellent in rule and method. He must have served (khidmat qilgandur) under Babur Mirza (Shahruxi). There was no greater beg in Umar Shaikh Mirza's presence. He was a vicious person...*[3.26] (*ana biri Shayx Mazid Beg edi. Mening birinchi bek atkam, boshqaruvi va uslubi yaxshi edi. Bobur mirzoga xizmat qilgan. Umarshayx mirzoning soqchiligida ulug'roq beg yo'q edi. U xavfli shaxs edi (MT) deb beradi. A.Beverij tomonidan asliyatdagi «Umarshayx mirzo qoshida andin ulug'roq bek yo'q edi» jumlasini «There was no greater beg in Umar Shaikh Mirzas presence» (Umarshayx mirzoning soqchiligida ulug'roq beg yo'q edi) deb o'g'irilishi matndagi qiyosiy tasvir quvvatini yo'qqa chiqargan. Gapdagi qiyosiy darajani ifodalovchi «than»ning tushib qolishi shunday xatoga olib kelgan. Mazidbekka oid «fosiq kishi erdi» sifatlovchi birikmasi tarjimada «He was a vicious person» (U buzuq shaxs edi) deb beriladiki, bu ifoda uni siyosiy raqibga aylantirib qo'yadi. Bobur esa undagi axloqiy-ma'naviy xususiyatni nazarda tutgan edi.*

V.Tekston tarjimasida: «Another was Shaykh Mazid Beg. He was appointed my first beg atäkä. His management and administration were unquestionable. He had served Abul-Qasim Babur Mirza. There was no greater beg in Umar Shaykh Mirzas service than he, but he was a vicious» [4.48] tarzida tarjima qilinadi. «...fosiq kishi erdi» jumlasini esa «he was a vicious man» (u buzuq (yovuz) kishi edi) tarzida beriladi. Bu tarjimada ham ma'no pragmatik aks etgan desak mubolag'a bo'lmaydi. V.Tekston Mazidbekning Umarshayx arkonidagi xizmatini aks ettiruvchi «undan yaxshiroq bek yo'q edi» jumlasini mazmunini teran anglagan, ya'ni «There was no greater beg in Umar Shaykh Mirzas service than him» (Umar Shayx mirzo xizmatida undan ko'ra ulug'roq bek yo'qdir) tarzida to'g'ri o'g'irgan. Bunda qiyosiy tasvir grammatik jihatdan ham asliyatga muvofiq kelgan. Demak, bu parcha tarjimasida V.Tekston qiyosiy tasvirlarni asliyat matniga muvofiq o'g'irishga erishgan. Mazidbekning xarakter psixologiyasi yaxshi ifodalangan.

Mumtoz asarlar tarjimasini amaliyotida tarjimonlar ko'plab muammolarga duch keladi. Mumtoz matnga xos ishoralar, ramz va timsol elementlari, so'zlardagi qochirim, arxaiqlik, ma'no ko'chishi, kengayishi kabi jihatlarni anglamagan tarjimon, ayniqsa o'zbek mumtoz nasri mohiyatini to'la ochib berishi qiyin. G'.Salomov tarjima amaliyotiga xos bunday muammolarni to'g'ri anglaydi va to'g'ri talqin etadi: «Tarjimon uchun so'z tanlashning mashaqqati yana ham ko'proq. Chunki u asarni o'z tiliga ag'darar ekan, unda tasvirlangan narsani ifodalash uchun yigirmatalab so'zlar orasidan o'zi istaganlarini ishlata olmaydi... Tarjimon faqat avtor ifodalagan fikrni o'z tiliga haqqoniy qayta tiklash doirasida so'z tanlash erkinligiga ega. Agar tanlangan so'z asl nusxadagi so'zga muvofiq tushsa, o'sha so'zning mag'zida yashirinib yotgan ma'no bizning tilimizda tiriladi, aksincha, agar unga to'liq muvofiq bo'lmasa, fikrni noaniq va mujmal qilib qo'yishi mumkin» [7.166]. Ma'lum bo'ladiki, tarjimonning vazifasi, ta'bir joiz bo'lsa mahorati ham, tarjima jarayonida duch kelingan muammolarning eng ma'qbul yechimini topishida ko'rinadi. Tarjimon bu muammolarni hal etishda asliyatdagi voqealar tafsiloti, tasvir etilayotgan obraz xarakterini yorituvchi tasviriy vositalar mohiyatini teran anglab yetmog'i lozim. Bunda faqat lug'atlar bilan ishlash emas, asar muallifi tegishli xalq tarixi, folklori, adabiy manbalari, til xususiyatlarini ham mukammal bilish talab etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

«Boburnoma»dagi Ali Mazidbek qavchinga berilgan qisqa tavsif aynan Shayx Mazidbek bilan uni qiyoslash imkonini beradi. Natijada o'quvchi mantiqiy chog'ishtirish orqali Umarshayx mirzo

saltanatida xizmatda bo'lgan beklar fe'l-atvorlarining naqadar turli-tumanligini, ularning temuriylar saltanatida tutgan mavqelarini anglaydi.

Aftidan Umarshayx mirzo temuriylar saltanatidagi xizmat lavozimlarida ko'zga tashlanadigan vorisiylik (muayyan martabaning otadan bolaga o'tishi) an'anasini izchil saqlashga uringan. Buni Bobur chuqur anglaydi va bu yo'ldagi psixologik holatlarni, murosa siyosatini zimdan bayon etadi.

Ali Mazidbek qavchin ta'riflangan ilk jumladayoq Boburning shaxs psixologiyasining eng muhim nuqtasidan so'z boshlash mahorati aniq bilinadi. Bu shaxs Umarshayx va Bobur saltanatiga ikki marta dushmanlik harakatini zohir etganki, Bobur buni aniq vaqt va zamon ko'lamida bayon etgan: «Yana bir Ali Mazidbek qavchin edi, ikki qatla yog'iy bo'ldi: bir martaba Axsida, yana bir martaba Toshkentda. Munofiq va fosiq va haromnamak va yaramas kishi edi» [2.41]. Tasvir davomida Mazidbek qavchinning yuqoridagi bek bilan muqoyasasi ochiq berilmagan bo'lsa-da, o'quvchini beixtiyor mantiqiy solishtiruvga undaydi. Shu bilan birgalikda, asardagi fabulaviy izchillikni ta'minlaydi. O'quvchi Umarshayx atrofidagi voqelikni shaxslar psixologiyasidagi holatlar muqoyasasi orqali bir butun tasavvur qiladi.

Bunday jihatlar Leyden-Erskin tarjimasida: «Ali Mazid Beg Kuchin was another. He twice rebelled, once in Akhsi and once in Tashkent. He was a libidinous, treacherous, good-for-nothing hypocrite» [3.23] tarzida aks ettiriladi. Ali Mazidbek fe'lga xos munofiqlikni ifodalovchi: ikki bor dushmanga sotilgani, axloqsiz, yaramas kimsa ekani ko'rsatib berilgan. Xususan, «...munofiq va fosiq va haromnamak va yaramas kishi edi» jumlasini «He was a libidinous, treacherous, good-for-nothing hypocrite» (u axloqsiz, xoin, yaramas munofiq edi) deb o'g'irilgan. Bunda tarjimon biron bo'rttirish yoki kichraytirish holatlariga yo'l qo'ymaydi. Aksincha, asliyatdagi obrazlar xarakteri psixologiyasini ifodalovchi tasviriy vositalar ma'nolariga alohida ahamiyat beradi.

A.Beverij tarjimasida: «Ali-mazid Quchin was another; he rebelled twice, once at Akhsi, once at Tashkent. He was disloyal, untrue to his salt, vicious and good-for nothing» [1.26] deb o'g'iriladi. Bu tarjima variantida «...munofiq va fosiq va haromnamak va yaramas kishi edi» tasviri «He was disloyal, untrue to his salt, vicious and good-for nothing» (U xiyonatkor, xaromnamak, johil va yaroqsiz edi) shaklida beriladi. Asliyatdagi «xaromnamak» so'zi «untrue to his salt» shaklida so'zma-so'z tarjima qilinadi. Tarjimon bu bilan Mazidbek qavchin xarakterini ifoda etuvchi tasviriy vositani so'zma-so'z bo'lsada, tarjima matnida qayta tiklashga erishgan.

V.Tekston tarjimasida: «Another was Ali Mazid Beg. He was a Qauchin. He rebelled twice, once at Akhsi and once at Tashkent. He was hypocritical, debauched, ungrateful, and worthless» [4. 48] ko'rinishida berilgan. Tarjimon Bobur qo'llagan tasviriy vositalar mohiyatini yaxshi tushungan. Ushbu «munofiq va fosiq va haromnamak va yaramas kishi edi» tasviri «He was hypocritical, debauched, ungrateful, and worthless» (u munofiq, axloqsiz, yaxshilikni bilmaydigan, yaramas edi) tarzida keladiki, Ali Mazidbek qavchin xarakteriga xos illatlarning pragmatik xossalariga muvofiq keladi. V.Tekston tarjimasida tasviriy vositalar to'la ifodasini topganidek, «Boburnoma» matniga xos ilmiy aniqlikni ifodalash barobarida, badiiy joziba ham saqlab qolingan.

XULOSA

«Boburnoma» matnida tasvirlangan xarakter psixologiyasi aniqlik, real voqeaga muvofiqlik, so'zlar, ko'chimlar, ishora va ramziy belgilar tarjimalarga to'la ko'chmagan bo'lsa ham, qahramondagi ikkiyuzlamachilik, munofiqlik, axloqan tubanlik muayyan darajada o'z aksini topgan. Ayniqsa, fosiq va haromnamak so'zlari Bobur ifodasida chuqur ma'naviy, psixologik ma'noni talqin etadi. «Haromnamak» so'zi asli fors-tojik o'zlashma qatlamiga mansub so'z bo'lib, «harom» va «tuz» so'zlari qo'shilmasidan hosil qilingan. Bu o'zining tarixiy-etimologik mazmuniga ko'ra o'zbek xalqining «Tuzini yeb, tuzluqqa tupuradi», degan hikmatli aforizmiga mazmunan bog'lanadi. Bu jihat yuqoridagi ikki tarjimada yorqin aks etmagan. Ammo V.Tekston tarjimasida uchraydigan «yaxshilikni bilmaydigan» iborasi tarjimonning keng lisoniy va tarixiy-etimologik tayyorgarlik bilan ishlaganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiru'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols. – London, 1922; Repr. in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975. – P.134
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma». – Toshkent: Sharq NMAK,
3. Leyden J., W.Erskine. Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan.– Edinburg, 1826. – P.422
4. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler M., Thackston. – New York & Oxford, 1996. – P.121
5. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги АСН, 1972.
6. Фафуров И. Таржиманинг ижодий жа-раёнлари ва прагматизм // Қиёсий таржимашунослик ва таржима назарияси муаммолари. (Республика илмий анжумани материаллари). – Тошкент, 2007. – Б.8.
7. Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: ФаҢ, 1966. – Б.166.
8. Эргашев Қ. Навоий насри ва Бобурнома // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2014. – №1. – Б.28.